

BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING "PEDAGOGIK MAHORAT" FANINI O'ZLASHTIRISHIDA NEYRODIDAKTIK YONDASHUV MUAMMO SIFATIDA

Boydavlatov Azamat Ahmadali o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

azamatboydavlatov77@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Pedagogik mahorat" fanini o'zlashtirish jarayonida bo'lajak mutaxassislar uchun neyrodidaktik yondashuv muammolari va imkoniyatlari nazariy-tahliliy tarzda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: neyrodidaktika, neyropedagogika, pedagogik mahorat, bo'lajak mutaxassislar, miyaning o'rganish mexanizmlari, Neurobiologiya

НЕЙРОДИДАКТИЧЕСКИЙ ПОДХОД КАК ПРОБЛЕМА В ОСВОЕНИИ БУДУЩИМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ НАУКИ "ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО"

Аннотация: В данной статье представлен теоретически-аналитический анализ проблем и возможностей нейродидактического подхода для будущих специалистов в процессе освоения предмета «Педагогические навыки».

Ключевые слова: нейродидактика, нейропедагогика, педагогические навыки, будущие специалисты, механизмы обучения мозга, Нейробиология

NEURODIDACTIC APPROACH AS A PROBLEM IN MASTERING THE SCIENCE OF" PEDAGOGICAL SKILL " OF FUTURE SPECIALISTS

Abstract: This article provides a theoretical and analytical analysis of the problems and opportunities of the neurodidactic approach for future specialists in the process of mastering the subject of "Pedagogical Skills".

Keywords: neurodidactics, neuropedagogy, pedagogical skills, future specialists, brain learning mechanisms, Neurobiology

KIRISH

Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va innovatsion yondashuvlarning rivojlanishi, an'anaviy pedagogik usullarning samaradorligi haqida ko'proq savollar paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Pedagogik jarayonni loyihalashda hamda tashkil etishda ilg'or progressiv metodologiyalar ishlab chiqish va amaliyotda foydalanish hozirgi davr zamonaviy ta'lim jarayonlarining asosiy talabiga aylanmoqda. "Pedagogik mahorat" fanini o'qitishda an'anaviy yondashuvlar ko'pincha talabalarning

individual o'rganish ehtiyojlariga to'liq javob bera olmaydi. Bu esa pedagogik soha vakillari oldiga yana bir mas'uliyatni yuklaydiki, bu ham bo'lsa o'quvchilarni fanni oson va samarali o'zlashtirishini ta'minlash uchun yangi yechimlarni ishlab chiqishdir. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, "Pedagogik mahorat" fanini o'qitishda neyrodidaktik yondashuvlarni qo'llashni ushbu muammo uchun optimal yechimlardan biri sifatida ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Bu ta'lim oluvchining miyasining faoliyat mexanizmlariga asoslangan holda ilmiy asoslangan o'qitish tizimini ifodalaydi. Neyrodidaktik yondashuv pedagogikaning an'anaviy usullari bilan uyg'unlashgan holda o'quv jarayonini optimallashtirish va samaradorligi muammosini hal qilishi mumkin [1]. Zamonaviy o'qituvchini inson haqidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish sifatli o'quv jarayonini tashkil etishga yordam beradi.

"Pedagogik mahorat" fani bo'lajak pedagoglarni o'qituvchi mahoratiga bog'liq bilimlar bilan qurollantirish, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan Pedagogikaning alohida sohasi hisoblanib, ushbu fanni o'zlashtirish orqali bo'lg'usi o'qituvchilarning pedagogik jarayonni samarali tashkil etish kompetensiyalariga ega bo'lishi ko'zda tutiladi. Shundan kelib chiqib, zamonaviy ta'lim muhitida neyrodidaktik yondashuvning ahamiyati ortib borayotgan bo'lsada, bu sohada yurtimizda olib borilgan tadqiqotlar va nashr etilgan adabiyotlar hali yetarli emas. O'zbekistonda neyropedagogik bilimlarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish (B.Xo'jaev) va innovatsion ta'lim muhitida bolalarning neyropedagogik xususiyatlarini rivojlantirish (J.G'ulomov, N.Yunusova, V.Anvarova)ning ayrim masalalari o'rganilgan bo'lsada, bu borada haligacha yirik ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Lekin, xorijda bu bo'yicha anchagina salmoqli ishlar amalga oshirilganini e'tirof etish lozim. Xususan, Xorijlik olimlardan **John Medina** o'zining "**Brain rules**" (Miya qoidalari) asarida miyamizning qanday ishlashining nozik jihatlarini chuqur o'rganib chiqadi va har bir rahbar, o'qituvchi va ota-onalar uchun foyda bo'lishi mumkin bo'lgan bir qator tushunchalarni taqdim etadi. Medina ushbu asarda neyronlarning murakkab bog'lanishlari shunigdek, uyqu, jismoniy faollik kabi jihatlarini kognitiv faoliyatga ta'sirini ochib beradi. Rus olimi **M.P.Karpenko** "Neyrodidaktika" monografiyasida kognitiv nevrologiyani zamonaviy ta'limni asosiy komponenti sifatida ko'rsatadi. Ushbu asarda ta'limdagi kognitiv neyro-tadqiqotlar


xususida soʻz boradi. Bundan tashqari, **A.Malsagov** (taʼlim nazariyasida neyrodidaktik paradigmalar), **A. I. Tashcheva, P. V. Menshikov, S. V. Gridneva, A. I. Korobchenko, M. R. Arpentieva** (inklyuziv taʼlimda zamonaviy neyrotaʼlim texnologiyalarini qoʻllash), **L.G. Emets** (taʼlim jarayonida neyrodidaktik yondashuvni tashkil qilish), **L.A.Federenko** (neyrodidaktikaning zamonaviy tamoyillari autentik videomateriallardan foydalangan holda oliy taʼlimda chet tillarini oʻrganish samaradorligini oshirish) kabi olimlarni bu boradagi izlanishlarini alohida ajratib koʻrsatish mumkin. Miya assimetriyasi, chap va oʻng yarim sharlarning taʼlim jarayonida bolalar nutqi va tafakkurining rivojlanishiga turlicha taʼsir koʻrsatishi, inson miyasi haqidagi bilimlardan taʼlimda foydalanish imkoniyatlari **L.S.Basser, J.E.Bogen, B.T.Vuds, E.Lenneberg, A.Smit, P.Jevenslarning** ilmiy izlanishlarida oʻz aksini topgan. Shuningdek, Hozirgi vaqtda **M.Gazzaniga, E.Kendel, R.Munakatalarining** tizimli ilmiy izlanishlari kognitiv nevrologiya sohasida alohida qiziqish uygʻotmoqda.

Tadqiqot davomida ilmiy, nazariy, uslubiy adabiyotlar, xorij va oʻzbek olimlarining qator ilmiy maqolalari, tezislari, dissertatsiyalari va adabiyotlarini nazariy tahlili va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, qiyosiy-pedagogik tahlil va suhbat asosida malakali soha vakillari bilan fikr almashish kabi metodlardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Hozirgi taʼlim tendensiyalarida neyrodidaktik yondashuvdan foydalanish — boʻlajak mutaxassislarning professional tayyorgarligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun zarur shartlardan biridir. **M.X.Malsagov** taʼkidlaganidek, “Neyrobiologiyadan olingan juda koʻp maʼlumotlarni hisobga olsak, biz hozir oʻrganish nazariyasidagi paradigmatic siljish bosqichida turibmiz, shundan biz pedagogikani qayta loyihalashni boshlashimiz mumkin”[2]. Yuqorida fikrlarni quvvatlagan holda aytishimiz mumkinki, neyrobiologik fan yutuqlarini oʻqitish jarayonlariga integratsiyalash oʻqituvchi va talaba oʻrtasidagi koʻp kanalli interfaol muloqot, shaxsga yoʻnaltirilgan oʻqitish va kognitiv jarayonlarni faollashtirishga imkon yaratadi.

“Pedagogik mahorat” fani boʻlajak oʻqituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularda yuksak pedagogik madaniyat va mahoratni shakllantirishga xizmat qiluvchi fan hisoblanadi. Fan oʻz oldiga quyidagi maqsadlarni qoʻyadi:



Fanning maqsadlaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, kelajak oʻqituvchisini tarbiyalashda ushbu fan asosiy predmetlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur fanni oʻqitishda anʼanaviy taʼlim metodlari hisoblangan maʼruza, suhbat, koʻrsatma-izoh, amaliy mashqning oldingi shakllari, darsning qatʼiy tartibga solingan tuzilmasi kabi oʻqitishning koʻp yillardan beri qoʻllanilayotgan klassik usullaridan foydalanish zamonaviy talablar fonida ayrim kamchiliklarga ega ekanligi koʻrinmoqda. Anʼanaviy taʼlim faol oʻquvchi pozitsiyasini deyarli qoʻllab-quvvatlamaydi, balki asosiy yuklama oʻqituvchi zimmasida boʻladi. Bunda oʻqituvchi bilimni “uzatadi” va oʻquvchilar uni passiv ravishda qabul qiladi. Allen taʼkidlaganidek, “transmissiv” anʼanaviy taʼlimda oʻquvchilar oʻqituvchi tomonidan taqdim etilgan faktlarni “passiv ravishda qabul qiladilar”, bunda bilim mutlaq (oʻzgarmas haqiqat sifatida) va tashqi (oʻquvchining tajribasi bilan bogʻlanmagan) manbadan beriladigan narsa sifatida koʻriladi [3].


Yuqoridagi fikrlardan shuni bildiradiki, keltirilgan kamchiliklarni oʻrnini toʻldirish, mavjud metodikaga alternativ zamonaviy metodik yechimlarni taqdim etish, sohada izlanish olib borayotgan tadqiqotchilarning asosiy mavzusi boʻlishi lozim. Chunki, XXI asr ilm-fan taraqqiy etgan texnologiyalar asrida hali ham yurtimizdagi taʼlim muassasalarida oʻquvchilarning individual qobiliyatlariga, kognitiv imkoniyatlariga, idrok qilishning individual modellari (reprezentativ tizimlar)ga asoslangan holda bola imkoniyatlariga mos ravishda jarayonni tashkil

etilmayotgani sohadagi eng katta nuqsonlarimizdan biri hisoblanadi. Ushbu sharoitda inson miyasi faoliyati, idrok, xotira, o'rganish mexanizmlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan neyrodidaktik yondashuvga asoslangan o'quv jarayonini yo'lga qo'yish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. "Pedagogik mahorat" fanini o'zlashtirish jarayonida ham neyrobiologik asoslangan metodlardan foydalanish talab qilinadi. Biroq, pedagogik amaliyotda neyrodidaktik yondashuvdan foydalanishda bir qator muammolar ham mavjudki, ularni bartaraf etmasdan turib ma'lum natijaga erishish qiyin. Quyida ushbu muammolar va ularning tasnifi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz:



1-jadval

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish orqali o'qitishda neyrodidaktik yondashuvdan foydalanish bo'lajak o'qituvchilar uchun "Pedagogik mahorat" fanini chuqurroq, ongli va samarali o'zlashtirishga yordam beradigan zamonaviy metodologik asos hisoblanadi. "Pedagogik mahorat" fani bo'yicha berilgan mavzularga mos ravishda ushbu yondashuvlarni tadbiq etish yuzasidan fikrlarimiz va takliflarimizni quyidagi grafikada keltirib o'tamiz.



2-jadval

Neyrodidaktika sohasidagi qator tadqiqotlarni o'rganish orqali aytishimiz mumkinki, so'nggi yillardagi neyrodidaktik yutuqlar o'quv jarayonini miya pozitsiyasidan qayta ko'rib chiqish, talabalarning bilim qobiliyatini oshirish imkonini beradi deb hisoblamogda. Xususan, L.Yemets o'z maqolasida "Neyrodidaktik yondashuv an'anaviy pedagogik usullar bilan birgalikda ta'lim jarayonini optimallashtirish va samarali amalga oshirish masalasini hal qilishi mumkin, bu esa zamonaviy o'qituvchilarga insonlar haqidagi zamonaviy ilmiy bilimlarni hisobga olgan holda yuqori sifatli o'quv jarayonini yaratishga yordam beradi[4]", – deb ta'kidlaydi. N.V. Churilo o'zining "Neyropedagogika samarali ta'lim jarayonining asosi sifatida" maqolasida dunyoning turli mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlar asosida bolalarning muvaffaqiyatli o'qishi shartlariga ta'sir qiluvchi turli omillarni tahlil qildi va quyidagi xulosalarni bildirib o'tdi: Ta'lim ko'p rejimli bo'lishi, turli xil usullardan: vizual, taktil va eshitish vositalaridan foydalanishi kerak. Zamonaviy ta'lim asosan an'anaviy og'zaki o'qitish usullaridan foydalanadilar. Bolaning ta'limi moslashuvchan bo'lishi kerak, bu esa o'qituvchidan aqliy rivojlanishning umumiy darajalari, miya rivojlanishining yoshga bog'liq normalari va aqliy neoplazmalar

haqidagi bilimlarga tayanishni talab qiladi[5]. Bizningcha ham o'quv jarayonlari bilim oluvchilarning turli imkoniyatlariga mos bo'lishi, talabalarga ta'lim berishda ularning individual neyrofizologik xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, "Pedagogik mahorat" fani bo'lajak mutaxassislar arsenalini pedagogik faoliyatidagi eng kerakli bilimlar, amaliy ko'nikmalar bilan qurollantiruvchi muhim fanlardan biri hisoblanadi. Samarali o'zlashtirish masalasini o'quvchining individual kognitiv strategiyalari haqidagi neyropedagogik va neyropsixologik bilimlar yordamida muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. Neyropedagogika fanlararo bilimlarni talab qiladigan istiqbolli pedagogik soha ekanligini hisobga olsak, barcha pedagogik mutaxassisliklar talabalari neyropedagogika asoslari va tamoyillari haqida asosiy tushunchalarga ega bo'lishlari kerak. Bu pedagogik mutaxassisliklar o'quv dasturlariga neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixofiziologiya, neyropedagogika kabi fanlarni qo'shishni talab qiladi. Ushbu fanlar talabalarga inson miyasining faoliyati va miya va aqliy funktsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik haqida asosiy bilimlarni olishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Емец, Л. Г. (2022). Мотивация педагогов как важный фактор для внедрения нейродидактического подхода в обучение. *Мир науки, культуры, образования*, (6 (97)), 359-361.
2. Мальсагова, М. Х. (2020). Предпосылки нейродидактического парадигмального сдвига в теории обучения. *Мир науки, культуры, образования*, (2 (81)), 264-266.
3. Allen, A. (2022). An introduction to constructivism: Its theoretical roots and impact on contemporary education. *Journal of Learning Design and Leadership*, 1(1), 1–11.
4. Емец, Л. Г., & Уварова, Н. Н. (2021). Актуальность внедрения нейродидактического подхода в образовательный процесс. *Мир науки, культуры, образования*, (6 (91)), 297-299.
5. Чурило, Н. В. (2019). Нейропедагогика как основа эффективного образовательного процесса. *Auditorium*, (2 (22)), 82-86.
6. Boydavlatov A. A. "Neyrodidaktika yangi soha sifatida". "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali, 1-son (2025) ISSN:2992-9008; UDK:37 (139-144)
7. М.П. Карпенко, Нейродидактика: Монография. – М.: Изд-во СГУ, 2019.